

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2025-yil " 14 " -oktabrdagi
384-son buyrug'iga
2-ILOVA

**Pedagogika sohasidagi ilmiy maktablarning yutuqlari va tajribalarini ommalashtirish
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari	Ilmiy natijalarni yig'ish va tahlil qilish: Ilmiy maktab tarixini, asoschilarini, yo'nalish va yutuqlarini tizimlashtirish; Ilmiy ishlanmalar, patentlar, maqolalar, dissertatsiyalar bazasini yaratish.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy
2-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari va hamkor tashkilotlar	Ilmiy maktab tajribalarini hujjatlashtirish: Monografiya, darslik, metodik qo'llanmalar; Ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar; Infografika va multimedia materiallar.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy
3-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari va hamkor tashkilotlar	Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari orqali tarqatish: Ilmiy jurnallar, konferensiyalar, seminarlar; Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, TV, radio); Internet platformalar (veb-sayt, blog, ijtimoiy tarmoqlar); Ijtimoiy tarmoqlar.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy
4-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari va hamkor tashkilotlar	Ta'lim tizimida joriy etish: Oliy ta'lim dasturlariga kiritish; Malaka oshirish kurslarida o'qitish; Ilmiy va o'quv laboratoriyalar tashkil etish; Ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha taklif kiritish.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy

5-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari va hamkor tashkilotlar	Xalqaro maydonda tanishtirish va targ'ib qilish: Xorijiy konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish; Qo'shma loyihalar va ilmiy hamkorlikni amalga oshirish; Ilmiy yutuqlarni tarjimalar orqali tarqatish.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy
6-bosqich	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari	Ilmiy maktablarning vorisiyligini ta'minlash: Yosh olimlar uchun ustoz-shogird an'anasini rivojlantirish; Innovatsion loyihalarda ishtirok etish; Grant va stipendiyalar orqali qo'llab-quvvatlash.	2025–2026- o'quv yilidan boshlab doimiy